O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
REKTORINING BUYRUG'I

2025 yil "7" yanvar №3-UM Toshkent sh.

**Koreya Respublikasing Chung-Ang universiteti talaba va professor-o'qituvchilari uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish to'g'risida**

Koreya Respublikasing Chung-Ang universitetining Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida 2025-yil 6-14-yanvar kunlari "Global Culture program 2024" dasturini o'tkazish bo'yicha murojaat qilgan rasmiy xati ijrosini ta'minlash maqsadida

**BUYURAMAN:**

**1. O'quv ishlari bo'yicha prorektor (A.Abdullayev), Xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i (Sh.Salimov), Til ta'limi va konsalting markazi boshlig'i (Z.Davlatov)ga:**

1.1. Koreya Respublikasing Chung-Ang universitetining Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida 2025-yil 6-14-yanvar kunlari "Global Culture program 2024" dasturini o'tkazish doirasida taqdim etilgan hamkorlik xati asosida **2025-yil 7-10-yanvar** kunlari Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida Koreya Respublikasing Chung-Ang universiteti talaba va professor-o'qituvchilari uchun O'zbekiston madaniyati to'g'risida koreys tilida 8 soatlik malaka oshirish kurslari tashkil etilsin:

| № | O'qituvchining F.I.Sh | Sana | Mavzu |
|---|---|---|---|
| 1 | Yeon Sangheum | 07.01.2025 | O'zbekiston |
| 2 | D.R.Ashirbayeva | 08.01.2025 | O'zbek milliy taomlari |
| 3 | D.K.Abbasova | 09.01.2025 | O'zbek bayramlari |
| 4 | G.A.Yusupova | 10.01.2025 | O'zbek nutqiy etiketlari |

1.2. Kurs tinglovchilariga dars berish uchun "Koreyashunoslik" oliy maktabining quyidagi professor-o'qituvchilar jalb qilinsin:

Dumog

| № | O'qituvchining F.I.Sh | Ish joyi | Bir soatga to'lanadigan haq | Umumiy soat | Umumiy haq |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Yeon Sangheum | TDShU, "Koreyashunoslik" oliy maktabi | 642 500 | 2 | 1 285 000 |
| 2 | D.R.Ashirbayeva | TDShU, "Koreyashunoslik" oliy maktabi | 642 500 | 2 | 1 285 000 |
| 3 | D.K.Abbasova | TDShU, "Koreyashunoslik" oliy maktabi | 642 500 | 2 | 1 285 000 |
| 4 | G.A.Yusupova | TDShU, "Koreyashunoslik" oliy maktabi | 642 500 | 2 | 1 285 000 |

**2. Bosh hisobchi (G.Rahimova)ga:**

-Malaka oshirish kurslariga jalb etilgan professor-o'qituvchilar uchun o'z vaqtida haq Koreya Respublikasing Chung-Ang universiteti tomonidan shartnoma asosida jalb qilingan investitsiya mablag'lari hisobidan amalga oshirish vazifasi yuklansin.

**3. Devonxona va arxiv bo'limi mudiri Sh.Yakubjanovaga:**

Mazkur buyruq nusxalari o'rnatilgan tartibda mas'ul ijrochilarga yetkazilishi vazifasi yuklansin.

**4.** Mazkur buyruq ijrosi nazorati O'quv ishlari bo'yicha prorektor N.A.Abdullayev zimmasiga yuklansin.

*Asos: Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti "Koreyashunoslik" oliy maktabining 2024-yil 17-dekabrdagi navbatdan tashqari majlisi bayonidan ko'chirma.*

**Rektor** **G.Rixsiyeva**

ASLIGA TO'G'RI

DEVONXONA

Scanned with ACE Scanner

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**
**"KOREYASHUNOSLIK" OLIY MAKTABINING**
**NAVBATDAN TASHQARI MAJLISI BAYONIDAN KO'CHIRMA**

**2024-yil 17-dekabr** **Toshkent shahri**

**Qatnashdilar:** kaf. mudiri PhD, katta o'qituvchi Yeon Sangheum, f.f.d., prof. N.D. Kim, PhD, dots. T.S.Kim, PhD, dots. G.D.Yunusova, PhD, dots. D.K. Abbasova, PhD, dots. D.R. Ashirbayeva, PhD, katta o'qituvchi D.B. Murodova, PhD, dots. v.b. G. A.Yusupova, o'qituvchi B.A.Mirsharipova, o'qituvchi-stajorlar N.N. Nosirxonov, N.Sh. Karimov, V.A. Shin, Sobirova M.S, kafedra tayanch doktoranti A.T.Hidoyatova.

**Kun tartibi:**

1. Koreya Respublikasining Chungang universiteti talabalariga dars o'tib berish masalasi
2. Turli masalalar.

**Tinglandi:** Kun tartibidagi mazkur masala bo'yicha majlis raisi Yeon Sangheum so'zga chiqdi.

Koreya Respublikasining Chungang Universitetidan 2024-yil 11-noyabrida kelgan xatiga ko'ra "2024 Global Culture Program" dasturi doirasida Koreyashunoslik oliy maktabi ustozlarining ishtiroki so'ralgan. Chungang universiteti talabalariga 2025-yilning 7-yanvaridan 10-yanvariga qadar Koreyashunoslik oliy maktabining quyidagi ustozlari dars o'tadilar.

| F.I.SH. | Sana | Mavzu |
|---|---|---|
| Yeon Sangheum | 07.01.2025 | O'zbekiston |
| Ashirbayeva D.R. | 08.01.2025 | O'zbek milliy taomlari |
| Abbasova D.K. | 09.01.2025 | O'zbek bayramlari |
| Yusupova G.A. | 10.01.2025 | O'zbek nutqiy etiketlari |

Kun tartibiga qo'yilgan masala yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalar asosida kafedra majlisi

**QAROR QILADI:**

1. Kafedra mudiri Yeon Sangheum axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin
2. Koreya Respublikasining Chungang universitetidan 2025-yilning 7-yanvaridan 10-yanvariga qadar Yeon Sangheum, D.R.Ashirbayeva, D.K.Abbasova, G.A.Yusupovalarga "2024 Global Culture Program" dasturi doirasida dasturda ishtirok etishlari uchun rahbariyatdan ruxsat so'ralsin.

**Majlis raisi:** **Yeon Sangheum**

**Majlis kotibi:** **S.Sherboyev**

---

Тошкент давлат шарқшунослик университети ректори проф. Г.Рихсиевага

БИЛДИРИШНОМА

Корея Республикасининг Чунг-Анг университети Тошкент давлат шарқшунослик университетида 2025 йил 6-14 январь кунлари "Global Culture Program 2024" дастурини ўтказиш бўйича хат билан расмий мурожаат қилди.

Дастурда Корея томонидан 20 нафар талаба ва 1 нафар профессор иштирок этиши режалаштирилган. Талабалар Корея маданияти, тарихи, сиёсати, дипломатияси, шунингдек, Корея ва Ўзбекистон ўртасидаги муносабатлар ёки бошқа мавзуларда тақдимотлар ўтказади. Шу билан бирга, Тошкентдаги музейлар ва миллий бозорларга ташриф буюриб, маданий тадбирларда иштирок этишлари ҳам назарда тутилган.

*Маълумот учун: 2024 йил январь ойида ушбу дастур Кореяшунослик факультети базасида муваффақиятли ташкил этилган ҳамда талабаларга расмий сертификатлар тақдим этилган.*

Корея томони ушбу дастурни ўтказишда ТДШУдан қуйидаги масалаларда кўмак сўрамоқда:

- дастур давомида ўқув хонаси ёки аудитория ажратиш;
- талабалар иштирокини тасдиқловчи сертификатлар бериш;
- дастурга маданий алмашинувда иштирок этиш учун 4-5 нафар ТДШУ талабасини волонтёр сифатида жалб этиш;
- ТДШУ ўқитувчилари томонидан Ўзбекистон маданияти тўғрисида корейс тилида 4 та маъруза ташкил этиш.

Музокаралар натижасида Корея томони ТДШУ ўқитувчилари томонидан ўқиладиган маърузалар учун тахминан 800 АҚШ доллари университетнинг ҳисоб рақамига ўтказилишига келишилди. Йил охирида халқаро молиявий операцияларда юзага келган баъзи қийинчиликлар сабабли, ушбу маблағлар Тошкентдаги банк орқали университет ҳисоб рақамига ўтказиладиган бўлди. Бу маблағлар университетга жалб қилинган инвестиция сифатида баҳоланади.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, дастур доирасида корейслик талабаларга маъруза ўқийдиган қуйидаги ТДШУ ўқитувчиларини мазкур маблағлар ҳисобидан рағбатлантиришга белгиланган тартибда топшириқ беришингизни сўрайман.

| Ф.И.Ш | Сана | Мавзу |
|---|---|---|
| Yeon Sangheum | 07.01.2025 | Ўзбекистон |
| Аширбаева Д.Р. | 08.01.2025 | Ўзбекистон миллий таомлари |
| Аббасова Д.К. | 09.01.2025 | Ўзбек байрамлари |
| Юсупова Г.А. | 10.01.2025 | Ўзбек нутқий этикетлари |

Кўриб чиқиш учун киритилмоқда.

Халқаро ҳамкорлик бўлими бошлиғи Ш.С[illegible]

"Келишилган"

Ўқув ишлари бўйича проректор Н.[illegible]